

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№6

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2025
IYUN



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX
COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr,
500 sahifa, iyun, 2025-yil.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi

- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Ways to Strengthen the Economy of Karakalpakstan	12
Isakov Janabay Yakypbayevich	
Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish xavf-xatarlarini iqtisodiy baholash.....	18
Raxmatova M.G., Saidjonova Z.B	
Strategy For Attracting Investments By Expanding the Participation of Joint-Stock Companies in the Securities Market	23
Aytmuratova Ulbiki Jalgasovna, Kutlymurat Zhalgasovich Aytmuratov, Raushan Nurlybay qizi Umirzakova	
O'zbekistonda eksportni sug'urtalash mexanizmlari: mavjud holat va takomillashtirish yo'llari	29
D.E.Qarshiev	
Ta'lim, ekologiya va raqamlashtirish sohalarida bolalar va o'smirlar turizmini integratsiyalash: xalqaro tajribalar va O'zbekiston	35
Islomova Dilrabo Salomovna	
Oliy ta'lim muassasalarida xodimlarning mehnat samaradorligini oshirishda rahbarlarning roli	40
Reyimberdiyev Baburbek Adilbek o'g'li, Yusupov Sherzodbek Baxtiyor o'gli, Xaitbayev Jasurbek Otaxanovich, Madraimov Xabibulla Madaminovich	
Обзор по теме Современные системы управлением возбуждение синхронных машин и перспективы их развития	47
Алиев Абдор Мураткулович	
The Mechanism for Applying Tax Benefits and Preferences in Tax Administration	52
Dilorom Mutalova	
Innovatsiyalarning ahamiyati va ularning iqtisodiy samaradorligining o'zbekiston qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlashdagi roli	57
Raximov Baxromjon Ibroximovich, Solohiddinov Nuriddin Sirojiddin o'g'li	
Bino va inshootlarni zilzilabardoshligiga oid nazariyalar.....	62
Jalilov Ahmadbek Ikromjon o'g'li	
Soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini konseptual asoslari va shartlari asoslari xususida	66
Abdusherozov Abdullo Baxtiyorovich	
The Analysis of the Psychophysiological Condition of Children With Mental Disorders and the Creation of Comfort Through Designed Clothing	73
Asatilaeva Lola Muratjon qizi, Muminova Umida Tokhtasinovna	
Analysis Types of Waterproof Fabrics and Their Physical and Mechanical Properties	80
Pulatova Laziza Bakhodirovna, Kasimova Aziza Bakhodirovna	
Kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatidan foydalanish darajasi va uni oshirish omillari	85
Umarkulov Kodirjon Maxamadinovich, To'xtasinov Boburbek Yusufjon o'g'li	
Suv resurslarini boshqarishda zamonaviy texnologiyalar:qishloq xo'jaligi uchun iims modelini ishlab chiqish.....	89
Fazilat Egamberganova Shuhratovna	
Raqamli texnologiyalar yordamida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish	93
Ernaqulov Sunnatillo Nurali o'g'li	
Qurilish sanoati korxonalari boshqarishning iqtisodiy mexanizmlari	98
Yembergenova Aynur Aydosbaevna	
Mahalliy budjetlar ijrosi to'g'risidagi hisobotlar va ularning axborot imkoniyatlarini oshirish masalalari	104
Abdulaziz Norquchqorov Ziyadullayevich	
Sirdaryo viloyatida investitsion faollikni oshirishda davlat va xususiy sektor hamkorligi	110
Mamatqulova Muxlisa Komiljon qizi	



Kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatidan foydalanish darajasi va uni oshirish omillari	115
Umarkulov, Kodirjon Maxamadaminovich, To'xtasinov Boburbek Yusufjon o'g'li	
Soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini ta'minlashning gnoseologik asoslari xususida	118
Abdusherozov Abdullo Baxtiyorovich	
Nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari faoliyatini tashkil etishning tashkiliy-huquqiy jihatlari	125
Yaqubova Nodira Olim qizi	
O'zbekistonda to'qimachilik eko-mahsulotlari bozorining rivojlanish imkoniyatlari	130
Nosirova Charos	
Uy-joy fondini boshqarish samaradorligini oshirishda zamonaviy sifat menejmenti tizimining o'rni	135
Asadullina Nailya Ramilevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
Axoli daromadlarining turmush farovonligiga ta'siri	142
Berdibekov A.	
Raqamli iqtisodiyot sharoitda ta'lim xizmati sifatini oshirishni ekonometrik modellashtirish usullari	148
Axmedova Barno Abdiyevna	
Jahon mamlakatlarida chakana savdoni boshqarishning o'ziga xosligi va unda strategik menejment tizimi	151
Yaqubov Azizbek G'anibekovich	
Kichik tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari	156
Amonov Mehridin Oromiddinovich	
Geologiya korxonalarining investitsion samaradorligini oshirish yo'llari	163
O'tamurodova Surayyo SHokirjon qizi	
Temir yo'l transportini rivojlantirishdagi xorij tajribasi	169
Nasrullayev Nurbek Baxtiyarovich	
Hududlar iqtisodiyoti agrar sektori investitsion faolligining ko'rsatkichlar tizimi va ularning xususiyatlari	174
S.J. Yangiboev	
Hududlarning soliq salohiyatini oshirishdagi mavjud muammolar va ularning yechimlari	181
Sharipov Narzullo G'ulomovich	
Uzoq muddatli aktivlar auditining tashkiliy va uslubiy jihatlarini takomillashtirish	188
Bakayev Xurshid Maxmudovich	
Применение искусственного интеллекта в оценке кредитных рисков.....	195
Маликов Шохрух Шокирович, Неъматова Фарангиз Санжар кизи, Омонов Санжар Ғанишер ўғли, Гулмуродова Динора Акрам кизи, Камалов Шухрат Камалович	
Tashqi bozorlarda tovarlarning raqobatbardoshligini oshirishda zamonaviy marketingdan foydalanish ...	209
Meliqulov Abduhalil Norinovich	
Tijorat banklari investitsiya faoliyatida yuzaga keluvchi risklar	215
Jo'rayev O'ktam Panji o'g'li	
Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda xalqaro savdo shartnomalarining roli.....	219
Xodjayev Jamshid Abduxakimovich	
Servislashgan jamiyatda avtoservis xizmatlarining o'rni va ahamiyatini yoritishga qaratilgan ilmiy yondashuvlar	223
Shaymardanova Dildora Xaydarjon qizi	
Davlat budjetining ijtimoiy sohani rivojlantirishdagi o'rni	230
Qo'ziyev Shodiyor Qilichboy o'g'li	
Madaniy festivallar-turizmni rivojlantirish vositasi sifatida	234
Xushnazarova Maxzuna Gulamdjanovna	
Xizmatlar sohasida innovatsion strategiyani shakllantirishning o'ziga xos jihatlarini	239
Jamshid Abduxaliqovich Xolboyev	



Innovatsion tadbirkorlikning milliy iqtisodiyotdagi o'rni	244
Fayziyev Shavkat Shaxobidinovich	
Managing Tourism in Fragile Ecosystems: A Case Study Approach	251
Dilmurod Nasimov, Shahrizoda Sirojiddinova	
Development of the Digital Financial Assets Market to Enhance Investment Activity	258
Shamshinur Yakubova	
Turizm sohasining investitsion jozibadorligi va uni oshirish yo'llari	263
Ayubov Ilyos Ilxomovich	
Qimmatli qog'ozlar bozorida risklarni boshqarish amaliyotini takomillashtirish	268
Otaxonov Saidaxror Ilhomjon o'g'li	
O'zbekiston hududlarining barqaror rivojlanishi: omillar va ko'rsatkichlar tahlili	274
Hojiyev Tal'at Toshpo'latovich	
Iqtisodchi va bugalterlarning jamiyatdagi o'rni va ahamiyati	282
Sohibova A'loxon Zafarjon qizi	
Kasbiy ta'lim tashkilotlarida o'quvchilarni raqamli kompetensiyasini baholashning metodologik asoslari ..	286
Maxkamova Zuxra Tursunpulotovna	
Sug'urta faoliyati hisobining normativ-huquqiy asoslari	292
Kodirkulov Oybek Turdiboyevich	
Raqamli iqtisodiyot: qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini ixtisoslashtirish va joylashtirish	301
Bazarov Nazirjon Sobirovich, Mo'minov Baxodir Orifjonovich	
Sport maktablaridagi yoqari sinf o'quvchilarining chidamkorlikni rivojlantirishning ahamiyati	306
Qon'irbayev Dastan	
Международный опыт сельскохозяйственного налогообложения и возможности его применения в узбекистане	311
Салимов Шерзод Бахтиёрвич	
Cleaning of Salt Water Using Reverse Osmosis	316
Kungiratbay Sharipov, Nurmanov Ma'ruf	
Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy instrumentlar auditi uchun tavakkalchilikka asoslangan baholash mezonlarini takomillashtirish	326
Nuraliyev Behzod Baxtiyor o'g'li	
Turizm investitsion salohiyatiga ta'sir kuchlari va ularga yechim	331
Ayubov Ilyos Ilxomovich	
Korxonalarda nomoddiy aktivlarni hisobga olishda shaffoflikni ta'minlash va xorij tajribalaridan foydalanish istiqbollari	335
Rizakulov Abdurauf Abdimutalibovich	
Strengthening the Tourism Industry Through Education and Training: A Review of Global and Regional Strategies	342
G'aforova Zarina Otabek qizi	
Raqamli iqtisodiyotda telekommunikatsiya infratuzilmasining rivojlanish omillari va iqtisodiy samaradorligi tahlili (o'zbekiston misolida)	348
Xazratov Abror Panjiyevich	
Smart tourism konsepsiyasining o'zbekistonda joriy etilishi: infratuzilma, xizmatlar va raqamli innovatsiyalar tahlili	352
Abriev Zoirjon	
The Development of Tourism Management as a Significant Part of Economy in Uzbekistan	358
To'xtarova Feruzahon Yuldashevna	
Biologik aktivlarni iqtisodiy tahlil qilish turlari: metodologiyasi va amaliy qo'llanilishi	362
Ziyayev Dilshodjon Salimjonovich	



Понятие и сущность денежного потока в системе финансового управления	366
Машарипова Шахло Адамбаевна	
Buxoro viloyat hududining urbanizatsiya konsepsiyasini ishlab chiqish	372
Akramov Doniyor Rustam o'g'li, Usmonov Muradxan Saidmaxmudovich	
Интегрированный механизм оценки финансового состояния предприятия	376
Tajibayeva Kizlargul Ajiniyazovna	
Ecosystem Services Under Ecological Stress: the Case of the Former Aral Sea	383
Umidjan R. Nazarkulov	
O'zbekistonda iqtisodiy ta'lim muammolarini virtual platformalar orqali bartaraf etish yo'llari	388
Jalolova Madina Shopo'lat qizi	
Temir yo'l transporti korxonalarida ishlab chiqarish salohiyatini rivojlantirish ("toshkent mexanika zavodi" aj misolida)	393
Xudoyorova Mehrangiz	
Развитие инклюзивного образования на основе социального маркетинга и цифровизации сферы ..	400
Адилова Зулфия Джавдатовна, Шоев Алим Халмуратович	
Qurilish jarayonlarini boshqarishning xorij tajribalari va ularning milliy investitsion-qurilish sohasiga transformatsiyasi	408
Abduvaliyev Bekzod Muxiddin o'g'li	
Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisbotni tayyorlashni takomillashtirish	414
Xayitboyev Muhammadiy Israfilovich, Abduraimova Maftunaxon Axmatovna, Ovlaev Suhrob Temur o'g'lim, Yo'ichiye Oybek Ulug'bek o'g'li	
Iqtisodiy-ekologik hududlarda pillachilik biznesining mazmuni va mohiyati	419
G'oziyeva Aziza Abdusalomovna	
Yashil moliyalashuv: bank faoliyatidagi huquqiy asoslar va amaliy yondashuvlar	427
Mirzaxmedova A. A.	
Tijorat banklarining yashil iqtisodiyotga o'tishdagi faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari	432
Mirzaxmedova A. A.	
O'zbekistonda inson kapitali raqamli transformatsiya sharoitida: muammolar, imkoniyatlar va strategik yechimlar	437
Umarkulov, Kodirjon Maxamadaminovich, Abdunosirova Nilufar Ravshanbek qizi	
Tijorat banklari aktivlarining samaradorlik ko'rsatkichlari istiqbollari	442
Xojiyev Jaxongir Dushabayevich	
Aholi turmush farovonligini oshirishning ilmiy-nazariy asoslari	447
Norqobilov Nusratilla Norsaitovich	
Progression of Small Business and Entrepreneurial Activity in Uzbekistan	450
Dauletbaeva Ulzada Bakhadirovna	
Raqamli moda dizayni va ishlab chiqarish usuli uchun clo3D ma'lumotlar bazasi	454
Temirova Gulnoz Ibodovna, Esanova Ma'rifat G'ayratovna	
Xususiy ta'lim muassasalarini boshqarishni takomillashtirishning amaliy jihatlari	459
Karimov Ulug'bek Usmonovich	
Global iqtisodiyotda bank tizimini raqamlashtirishning ahamiyati	465
Karimova Komila Daniyarovna, Sulxonberdiyeva Shodiya Shuxrat qizi	
Dasturiy vositalarning o'zaro muvofiqlikda ishlash metodlari va algoritmlari tahlili	470
Oybek Allamov, Boburbek Babajanov, Jahongir Bekturdiyev	
Mamlakatimizdagi tijorat banklari aktivlarini boshqarishning amaldagi holati tahlili	475
Baxriddinov Sharofiddin	
Surxondaryo viloyati hududlarida tadbirkorlik faoliyati va uning iqtisodiy rivojlanish dinamikasiga ta'siri	483
Normurodov Alibek Anvar o'g'li	



Методика выбора оптимальной стратегии обеспечения финансовой безопасности текстильных предприятий	489
Турсунов Бобир Ортикмирзаевич	
Kimyosanoat korxonalarida “tejamkor ishlab chiqarish” konsepsiyasini tadbiq etish samaradorligi tahlili	494
Gulbayeva Feruza Islamovna	

KIMYOSANOAT KORXONALARIDA “TEJAMKOR ISHLAB CHIQUARISH” KONSEPSIYASINI TADBIQ ETISH SAMARADORLIGI TAHLILI

Gulbayeva Feruza Islamovna

Toshkent kimyo-texnologiya instituti mustaqil tadqiqotchisi

<https://orcid.org/0009-0007-4207-1447>

Annotatsiya: Ushbu maqolada kimyo sanoati korxonalarida “tejamkor ishlab chiqarish” konsepsiyasini joriy etish samaradorligini baholash usuli tahlil qilinadi va takomillashtirish bo'yicha ilmiy takliflar ishlab chiqiladi. Turli ichki va tashqi omillar hisobga olingan holda, baholash mezonlari yangilanadi hamda amaliyotga yo'naltirilgan yondashuvlar taklif etiladi.

Kalit so'zlar: tejamkor ishlab chiqarish, kimyo sanoati, samaradorlik, kimyo sanoati mahsulotlari, raqobatbardoshlik, boshqaruv.

Abstract: This article analyzes the method of evaluating the effectiveness of the introduction of the concept of «lean production» in chemical enterprises and develops scientific proposals for improvement. Evaluation criteria are updated to take into account various internal and external factors and practice-oriented approaches are proposed.

Keywords: lean production, chemical industry, efficiency, chemical industry products, competitiveness, management.

Аннотация: В данной статье анализируется методика оценки эффективности внедрения концепции «бережливого производства» на химических предприятиях и разрабатываются научные предложения по ее совершенствованию. Актуализируются критерии оценки с учетом различных внутренних и внешних факторов и предлагаются практико-ориентированные подходы.

Ключевые слова: бережливое производство, химическая промышленность, эффективность, продукция химической промышленности, конкурентоспособность, управление.

KIRISH

Jahonda rivojlangan mamlakatlar singari, O'zbekistonda ham kimyo sanoatini rivojlantirish, resurs va energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish, mahsulot raqobatbardoshligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada davlat va xususiy sektor hamkorligi mustahkamlanib, investitsiyaviy muhit yaratilmoqda. Modernizatsiya, yangi texnologiyalar va bozor mexanizmlari asosida tarmoqni rivojlantirish strategiyasi amalga oshirilmoqda. Milliy iqtisodiyotimizda, xususan, kimyo sanoati korxonalarining jahondagi raqobatbardoshligini oshirish maqsadida keng qamrovli chora-tadbirlar tatbiq etilmoqda. Bu jarayonda davlat tomonidan bir qator iqtisodiy, texnik va institutsional o'zgarishlar amalga oshirilmoqda, ularning asosiy maqsadi kimyo sanoatini modernizatsiyalash, yangi texnologiyalardan foydalanish va mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirishdan iborat.

Shuningdek, davlat va xususiy sektor hamkorligi mustahkamlanmoqda, yangi investitsiyalarni jalb etishga qaratilgan tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma'rifiy asoslarini yaratishga qaratilgan Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida “.....milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, uning o'sish sur'atlarini zamon talablari darajasida ta'minlash” vazifalari belgilab berilgan.[1]

Ushbu chora-tadbirlar o'z navbatida iqtisodiy samaradorlikni oshirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga yo'naltirilgan bo'lib, ular milliy kimyo sanoatini global bozorda muvaffaqiyatli raqobat yuritishga imkon beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Korxonalar iqtisodiy samaradorligini oshirish masalasi ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, Shameli-Sendi, D. G. Baur, N. N. Schulze, Ye. V. Makarova va boshqalar moliyaviy barqarorlikning makroiqtisodiy jihatlariga e'tibor qaratgan. O'zbekistonlik olimlar – N. M. Maxmudov, M. A. Ikramov, A. U. Burxanov kabi mutaxassislar esa korxonalar rivojiga nazariy-uslubiy yondashuvlarni ishlab chiqqan. Biroq, kimyo sanoati korxonalarini strategik rivojlantirish va uning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari ushbu tadqiqotlarda yetarli darajada yoritilmagan. Shu sababli, mazkur tarmoqni yanada chuqur tahlil qilish dolzarb ahamiyatga ega.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda ma'lumotlar korxonalarning ishlab chiqarish jarayonlari bo'yicha ichki hisobotlari, energiya va resurs sarfi ko'rsatkichlari hamda xodimlar bilan intervyular orqali yig'ildi. Olingan ma'lumotlar tejamkorlik indikatorlari asosida tahlil qilinib, ishlab chiqarish xarajatlari, chiqindi hajmi va energiya samaradorligi bo'yicha solishtirma iqtisodiy tahlil usullari qo'llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlillar kimyo sanoatida ta'minot zanjiri uzluksizligining muhimligini ko'rsatmoqda. 2023-yilda "Ammofos-Maksam" AJda rejaga nisbatan fosforli o'g'itlar ishlab chiqarish 40,1 % ga kamaygan. Bu sulfat kislotasi ta'minotidagi uzilishlar va xomashyo yetishmovchiligi sababli yuz bergan. Import hajmi keskin oshgan, raqobatbardoshlikka salbiy ta'sir ko'rsatgan.

"Navoiyazot" AJ – O'zbekistondagi yirik kimyo sanoati korxonasi bo'lib, 34 turdan ortiq mahsulot ishlab chiqarmoqda. 2023-yilda tovar hajmi 1,9 trln so'mga yetgan. Quvvatlardan foydalanishda nomutanosiblik, asosiy vositalarning 62 % eskirgani va eksport ulushining pastligi korxonaning samaradorligiga ta'sir qilmoqda.

Quyidagi 1-jadvalda «O'zkimyosanoat» aksiyadorlik jamiyati tizimidagi kimyo sanoati korxonalarida "Tejamkor ishlab chiqarish" (ya'ni Lean Production) konsepsiyasini boshqarish samaradorligi baholangan. Baholash natijalari korxonalarda mazkur konsepsiya qanday darajada samarali joriy etilayotganini ko'rsatadi. Baholash shkalasi sonli ko'rinishda ifodalangan bo'lib, 0,00 dan 2,00 gacha bo'lgan intervalda korxonalarga baho berilgan va har bir bahoga muvofiq mazmunli tavsiflar berilgan. Bular asosida jadvalni tahlil qilish orqali "Tejamkor ishlab chiqarish" konsepsiyasining joriy etilishidagi muvaffaqiyat, muammolar va imkoniyatlarni chuqur anglash mumkin (1-jadval).

1-jadval: "O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati tizimida faoliyat yuritayotgan kimyo sanoati korxonalarida "Tejamkor ishlab chiqarish" konsepsiyasidan foydalanishni boshqarish samaradorligini baholash natijalari

Korxona nomi	Berilgan baho	Berilgan bahoning mazmuni
"Navoiyazot" AJ	1,44	O'rtachadan yuqori samaradorlik
"Farg'onaazot" AJ	1,76	O'rtachadan yuqori samaradorlik
"Maksam-Chirchiq" AJ	1,24	Past samaradorlik
"Ammofos-Maksam" AJ	1,81	Yuqori samaradorlik
"Jizzax plastmassa" AJ	1,12	Past samaradorlik
"Qo'ng'irod soda zavodi" MCHJ	0,45	Juda past samaradorlik
"Dehqonobod kaliyli zavodi" AJ	0,38	Juda past samaradorlik

Jadvalga ko'ra, e'tiborga molik holatlardan biri shundaki, korxonalar o'rtasida samaradorlik darajasidagi farqlar juda katta. Ba'zi korxonalar yuqori samaradorlikka erishgan bo'lsa, boshqalarda konsepsiyaning tatbiqi sezilarli darajada past. Bu holat tizimdagi bir xil bo'lmagan boshqaruv, moddiy-texnik baza, kadrlar salohiyati, texnologiya darajasi hamda strategik yondashuvlar farqi natijasi sifatida qaralishi mumkin.

Birinchilardan bo'lib, "Ammofos-Maksam" AJga berilgan 1,81 ballik baho e'tiborga molikdir. Bu korxonada "Tejamkor ishlab chiqarish" konsepsiyasidan foydalanish juda yaxshi tashkil etilganini, energiya va resurslardan samarali foydalanilayotganini, ishlab chiqarish jarayonlari optimallashtirilganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, tannarxni pasaytirish, xomashyodan maksimal darajada foydalanish va yo'qotishlarni kamaytirish yo'nalishlarida yuqori samaraga erishilgani ehtimoldan xoli emas. "Ammofos-Maksam" AJda yuqori texnologiyalar joriy etilgani va avtomatlashtirish darajasi baland ekani bu natijani ta'minlashda muhim omil bo'lishi mumkin.

Ikkinchi yuqori natijani "Farg'onaazot" AJ namoyon qilgan bo'lib, unga 1,76 ball berilgan. Bu ham "o'r-

tachadan yuqori samaradorlik” sifatida baholangan. Korxonada texnologik jarayonlarni qayta ko'rib chiqish, ishlab chiqarish izchilligini ta'minlash va xomashyoni tejash kabi tadbirlar natija berganini taxmin qilish mumkin. Ayniqsa, Farg'ona vodiysida joylashgan ushbu strategik ahamiyatga ega korxonaning iqlim va logistika nuqtayi nazaridan qulay joylashuvi hamda ishchi kuchi bilan ta'minlanganligi yuqori natijalarga zamin yaratgan bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, yangi investitsiyalarni jalb qilish va texnologik quvvatlarni yangilash orqali yanada yuqori samaradorlikka erishish imkoni mavjud.

Uchinchi o'rinda “Navoiyazot” AJ joy olgan bo'lib, 1,44 ball bilan “o'rtachadan yuqori samaradorlik” qatoriga kiradi. Ushbu korxona O'zbekiston kimyo sanoatidagi eng yirik va ko'p tarmoqli korxonalardan biri hisoblanadi. Quvvatlar katta, ishchilar soni ko'p va ishlab chiqarish turlari keng qamrovli. Shu bois, “Tejamkor ishlab chiqarish” konsepsiyasini joriy etish ancha murakkab va uzoq vaqt talab qiladi. Shunga qaramay, 1,44 ball bilan bu korxonada ham aniq samaradorlik ko'zga tashlanmoqda. Energiya samaradorligi, chiqindilarni kamaytirish, ishlab chiqarish jarayonidagi nomuvofiqliklarni bartaraf etish bo'yicha muayyan natijalarga erishilgani shubhasiz.

Endi “past samaradorlik” bo'lgan korxonalarni tahlil qilamiz. “Maksam-Chirchiq” AJ 1,24 ball bilan ushbu toifaga kiradi. Bu korxonada “Lean production” konsepsiyasining to'liq joriy etilmagani yoki natijalar kutilgan darajada emasligi ehtimoli bor. Sabablardan biri sifatida ishlab chiqarish uskunalarining eskirganligi, zamonaviy boshqaruv tizimlarining yetishmasligi, ishchi kuchining malakasi yoki moliyaviy cheklovlar bo'lishi mumkin. Bu kabi holatlar ishlab chiqarish jarayonida yo'qotishlar ko'payishiga, tannarxning yuqori bo'lishiga va mahsulot raqobatbardoshligining pasayishiga olib keladi.

Xuddi shunday holat “Jizzax plastmassa” AJda ham kuzatilmoqda. Unga berilgan 1,12 ball shuni anglatadi, bu yerda ham konsepsiyaning samaradorligi past. Ehtimol, korxonada mahsulot turlari cheklangan, bozor talablariga moslashishda qiyinchiliklar bor yoki avtomatlashtirish darajasi yetarli emas. Shu bilan birga, “Lean” usullarini joriy qilish uchun kadrlar tayyorlash, menejmentni qayta tashkil etish va resurslardan oqilona foydalanish kabi masalalar dolzarbligini saqlab qolayotgan bo'lishi mumkin.

Jadvalda e'tiborni tortuvchi eng past baholar – “Qo'ng'irod soda zavodi” MCHJ (0,45 ball) va “Dehqonobod kaliyli zavodi” AJ (0,38 ball) ga to'g'ri kelmoqda. Bu ikki korxonada “Tejamkor ishlab chiqarish” konsepsiyasi juda past darajada joriy etilgan va natijada samaradorlik deyarli kuzatilmayapti. Bu holat iqtisodiy, texnologik, tashkiliy va strategik jihatlardan jiddiy muammolar mavjudligini ko'rsatmoqda. Ehtimol, bu korxonalarda investitsiya yetishmasligi, yetarli raqobatbardosh muhitning yo'qligi, resurslardan samarasiz foydalanish va boshqaruv tizimining sustligi mavjud.

Jumladan, “Qo'ng'irod soda zavodi” kabi korxonalar soda va unga bog'liq mahsulotlar ishlab chiqaradi. Bunday mahsulotlar ishlab chiqarish jarayonida energiya sarfi yuqori bo'lib, resurslardan samarali foydalanmaslik katta yo'qotishlarga olib kelishi mumkin. Agar bu jarayonda “Lean” texnologiyalardan foydalanilmasa, barqaror rivojlanishga erishish mushkul bo'ladi.

Xuddi shunday, “Dehqonobod kaliyli zavodi”da kaliy xlorid kabi mahsulotlar ishlab chiqarilishi geologik sharoitlar, qazib olish jarayonining uzluksizligi, xomashyoni qayta ishlash jarayoni va energiya ta'minoti bilan bog'liq. Agar bu jarayonlarda yo'qotishlar minimallashtirilmasa, samaradorlik past darajada qoladi. Tez-tez to'xtab qolishlar, ta'minot zanjirlarida uzilishlar, kam samarali uskunalar “Lean production” imkoniyatlarini cheklaydi.

Jadvalni tahlil qilib, umumiy xulosaga kelganda, “O'zkimyosanoat” tizimidagi korxonalarda “Tejamkor ishlab chiqarish” konsepsiyasining samaradorligi turlicha darajada ekanini ko'rish mumkin. Ayrim korxonalarda konsepsiya samarali joriy etilgan va natija berayotgan bo'lsa, boshqalarda uning joriy etilishi sust kechmoqda yoki umuman samara ko'rsatmayapti. Bu holatni bartaraf etish uchun quyidagi choralar muhimdir:

Ta'lim va malaka oshirish – barcha korxonalarda “Lean production” bo'yicha mutaxassislar tayyorlash, xodimlarni qayta o'qitish va korporativ bilim almashish platformalarini yaratish.

Texnik modernizatsiya – eski uskunalarni zamonaviy, energiya samarador qurilmalarga almashtirish, avtomatlashtirish va raqamlashtirishni jadallashtirish.

Ishlab chiqarish jarayonlarini qayta ko'rib chiqish – jarayonlardagi yo'qotishlarni aniqlash va ularni kamaytirish bo'yicha ichki auditlar o'tkazish.

Investitsiyaviy faollikni oshirish – past samaradorlikka ega korxonalarga moliyaviy qo'llab-quvvatlash yoki xususiy investorlarni jalb qilish.

Tizimli monitoring va baholash – “Lean production” joriy etilishi va uning natijalarini muntazam monitoring qilish hamda har yili baholash tizimini joriy etish.

Xulosa qilib aytganda, jadval orqali “Tejamkor ishlab chiqarish” konsepsiyasi kimyo sanoatida nafaqat muhim, balki raqobatbardoshlik va barqaror rivojlanish uchun hal qiluvchi omil ekani namoyon bo'lmoqda. Bu konsepsiyani izchil va to'g'ri yo'naltirilgan tarzda joriy etish orqali sohada juda katta iqtisodiy va ekologik yutuqlarga erishish mumkin.

“Lean production” konsepsiyasi doirasida yangi texnologiyalarni joriy etish korxonalarda ishlab chiqarish



samaradorligini oshirish, energiya resurslari xarajatlarini kamaytirish, tannarxni tushirish va ekologik ta'sirni cheklashga xizmat qiladi. Kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarish sikli xomashyoni tayyorlash, kimyoviy reaksiya, sovtish, ajratish va tozalash, sifat nazorati, qadoqlash va saqlash kabi bosqichlarni o'z ichiga oladi. Bu jarayonda har bir bosqichning vaqti texnologik jarayon, xomashyo turi, uskuna holati va xodimlar malakasiga bog'liq bo'lib, mahsulot partiyasi uchun umumiy ish vaqti taxminan 5,5 soatdan 44 soatgacha davom etishi mumkin. Bu vaqt ishlab chiqarishning o'ziga xos xususiyatlari, jarayonlarni avtomatlashtirish va boshqa omillarga qarab kamaytirilishi yoki ko'paytirilishi mumkin.

Yuqoridagi obyekt sifatida olingan korxonada qayta sozlash vaqtini optimallashtirish – SMED usulini joriy etish polimer partiyalarini almashtirish uskunalarini qayta sozlash vaqtini 8 soatdan 2 soatgacha qisqartirish imkonini berdi. Bu esa yanada moslashuvchan partiyalarni ishlab chiqarish va bekor turish vaqtini qisqartirish imkonini bermoqda. Shuningdek, ushbu korxonada 5S usulini qo'llash xomashyo yo'qotishlarini 10 % ga kamaytirishga, ish maydonini tashkil etishni yaxshilashga yordam berdi, bu esa ish xavfsizligi va samaradorligini oshirdi.

Just-in-time (zaxiralarni kamaytirish maqsadida) tizimini joriy etish ombordagi xomashyo zaxiralarini 15 foizga qisqartirish imkonini berdi, bu esa qo'shimcha maydonlarni bo'shatdi va saqlash xarajatlarini kamaytirdi.

Sifatni statistik nazorat qilish tizimini (SPC) joriy etish nuqsonli mahsulotlar ulushini 3 foizdan 1 foizga kamaytirish imkonini berdi, bu esa qaytarish va qayta ishlash xarajatlarini kamaytirdi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Kimyo sanoati korxonalarini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari haqidagi ilmiy qarashlar turli tadqiqotlar, strategiyalar va innovatsion yondashuvlarga asoslanadi. Kimyo sanoatining rivojlanishi uchun kuchli tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni joriy etish muhim, chunki ular tarmoqning moliyaviy barqarorligi, raqobatbardoshligi va uzoq muddatli istiqbolini ta'minlaydi.

Boshqaruv qarorlarini qabul qilishda yuzaga keladigan xavf-xatarlarni kamaytirishga qaratilgan strategiyalar ishlab chiqish zarur. Kimyo sanoati korxonalarini modernizatsiya qilish, yangilangan texnologiyalar va innovatsion jarayonlarni joriy etish yuqori samaradorlikka erishishni ta'minlaydi. Investitsiyalar, shuningdek, yangi yuqori texnologik ishlab chiqarishni tashkil etishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Kimyo sanoati mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirish uchun zamonaviy texnologiyalar va samarali ishlab chiqarish tizimlarini joriy etish muhim. Bozorlar ham har tomonlama tahlil qilinishi va strategiyalarni joriy etishga asoslanishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, kimyo zavodida "Lean Production"ni joriy etish xarajatlarni 20 foizga kamaytirish, unumdorlikni 15 foizga oshirish, bekor turish vaqtini 25 foizga qisqartirish va mahsulot sifatini yaxshilash imkonini berdi. Bu esa pirovardida foydaning ko'payishiga va bozorda raqobatbardoshlikning oshishiga olib keldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://review.uz/oz/post/20220206-yillarga-moljallangan-taraqqiyot-strategiyasining-yangi-loyihasi-muhokama-ga-qoyildi>;
2. Shamel-Sendi, Alireza, Rouzbeh Aghababaei-Barzegar, and Mohamed Cheriet. «Taxonomy of information security risk assessment (ISRA)». Computers & security 57 (2016): 14-30.;
3. D.G. Baur, N.N. Schulze, Financial market stability, A test. Journal of International Financial Markets, Institutions and Money. 19(3) (2009) 506–519;
4. Yu.M. Sulejmanova, Management of Economic Stability of an Enterprise in the Process of its Innovative Development, Journal of Creative Economy. (2013) 89–95.;
5. R. Perciun, A. Stratan, A. Timush, The methodology of financial stability assessment of Republic of Moldova through macroeconomic indicators, Procedia Economics and Finance. (2014) 383–392.;
6. E.V. Budumjan, Development of innovative and investment processes as objective need of modernization of industrial manufacture, Scientific works of Free economic society of Russia. (2011) 75–80.;
7. Макарова Е.В. Специфика устойчивости экономической системы региона. // Материалы III международной научно-практической конференции «Проблемы социально-экономической устойчивости региона». - Пенза: РИО ПГСХА, 2006.;
8. Бобылев С.Н., Гиросов Э.В., Перелет Р.А. Экономика устойчивого развития: учебное пособие. / - М.: Изд-во «Ступени», 2004. -С. 303.;
9. Львова Н.А. Финансовая стабильность предприятий: методология фундаментальных и прикладных исследований. / Дис. ... доктора экон. наук. - Санкт-Петербург, 2016.;
10. Добровинский А.П. Антикризисное управление организацией: учебное пособие; Национальный исследовательский Томский политехнический университет. - Томск: Изд-во Томского политехнического университета, 2013.;
11. Лачихина А.Б., Петраков А.А. Подходы и методы управления информационной безопасностью в процессе



- управления промышленным предприятием // Вопросы радиоэлектроники. - 2017. - №. 11. - С. 48-51.
12. Махмудов Н.М. Макроиқтисодий барқарорликни мустаҳкамлаш-барқарор иқтисодий ўсишни муҳим шarti // Иқтисодиёт ва таълим. № 2. 2017. – 7-11 бет.;
 13. Икрамов М.А. Тенденции развития политики внешнеэкономической деятельности // <http://www.novapdf.com>.;
 14. Nurimbetov R.I., Ahmedov S.I. Ishlab chiqarish menejmenti. O'quv qo'llanma. – T.: Talqin, 2008. – 112 bet.;
 15. Бурханов А.У. Корхоналар молиявий барқарорлиги: назария ва амалиёт. Монография. -Тошкент:«Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи», 2019. -160 б.;
 16. Махмудов Э.Х. Корхона иқтисодиёти. - Т.: ТДИУ 2004. - 208 бет.; Аллаева Г.Ж. Ўзбекистон Республикасининг ёқилғи-энергетика мажмуаси корхоналарини барқарор ривожлантиришнинг ташкилий-иқтисодий механизми услубиятини такомиллаштириш) и.ф.д. (DSc) ил. дар. олиш учун автореф.-Т.-2021, -78 б.;
 17. Муратова Ш.Н. Саноат тармоқлари маҳсулотларининг иқтисодий-экологик хавфсизлигини таъминлаш услубиятини такомиллаштириш («Ўзбекқўмир» АЖ мисолида) и.ф.д. (DSc) ил. дар. олиш учун автореф.-Т.-2021, -81 б.;
 18. Кадиров А.М. Саноат корхоналарининг иқтисодий барқарорлигини таъминлаш механизмларини такомиллаштириш («Андижоннефт» АЖ мисолида) и.ф.н. (Ph.D) ил. дар. олиш учун тайёрланган диссер.-Т.-2019 й.;
 19. Қурбанов З.Н., Исаев Ф.И. Иқтисодий барқарорликни ифодаловчи кўрсаткичлар таҳлили // Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар. № 1, январь-февраль, 2017 йил – 1-8 бетлар.
 20. https://www.strategyand.pwc.com/media/file/Oil-Gas-Trends-2018-19_RU.pdf.
 21. <https://review.uz/oz/post/ximicheskaya-promshlennost-uzbekistana>.
 22. <https://burondt.ru/NDT/docs/ndt-2/index.html>

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100